“TASDIQLAYMAN”
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Boshqaruvi raisi o‘rinbosari v.b.

_________________O.Voxidov

“02” ___июня___2025 y.

“POS Terminal”lar xarid qilish bo‘yicha

# TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent - 2025 yil

| T/r | Talablar ro‘yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 1. | Tashkilotchi | «Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB |
| 2. | Buyurtmachi | «Biznesni Rivojlantirish Banki» ATB |
| 3. | Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmat turi | **“POS Terminal” (1000 dona)** |
| 4. | Tanlov savdolarini o‘tkazish uchun asos | O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi №684- sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori, bank Boshqaruvining 2025-yil 19-maydagi 60/5-sonli qarori bilan tasdiqlangan ““Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” Tartibi hamda Bank kartalari tizimini qo‘llab-quvvatlash departamentining 2025-yil __16-maydagi ___IF-1978-sonli bildirishnomasi |
| 5. | Ko`rsatiladigan Xizmatlarga qo'yiladigan talablar | POS to’lov terminali – UZCARD texnologik markazining xavfsizlik profiliga ega qurilma.<br>UZCARD protsessing markazi tomonidan EMV-chip, magnit tasma kabi asosiy tranzaksiya turlari bo‘yicha muvaffaqiyatli sinovdan o‘tganligini tasdiqlovchi hujjat<br>Shuningdek, ushbu qurilma mahalliy to’lov tizimi kartalarini, _kobeyj kartalar hamda xalqaro to‘lov kartalarini (VISA, UnionPay, Mastercard) qabul qilishi kerak.<br>POS to’lov terminalida USB kabeli bo'lishi kerak.<br>An'anaviy va muqobil to`lov turlarini qabul qilishi<br>O'zgartirilishi mumkin bo'lgan modullar yordamida yangilash imkoniyatlariga ega terminal.<br>To‘lov xavfsizligini oshirish<br>Majburiy PCI PTS 6.x sertifikati<br>Kelajakdagi xavfsizlik PCI PTS 6.x sertifikatiga ega va vaqt o'tishi bilan qurilma muvofiqligini ta'minlash uchun mahalliy tartibga solish talablariga javob beradigan tarzda ishlab chiqilgan bo`lishi.<br>-EMV chip & PIN, EMV chip sign va magnit chiziqli tranzaktsiyalarni qo'llab-quvvatlaydigan barcha to'lov usullarini qo'llab-quvvatlaydigan, shuningdek _QR-kod orqali, NFC gadjetlari, elektron hamyonlar va muqobil to'lov usullaridan foydalangan holda kartalar orqali kontaktsiz to'lovlarni qabul qiladigan bo`lishi.<br>- _Mobil savdo muhitida ishlash imkoniyati. Har qanday do'konning savdo muhitiga osongina qo'shilishi.<br>- Eng so'nggi PCI DSS xavfsizlik standartlariga muvofiqligini ta'minlaydigan va terminallarning joriy holatini saqlash xarajatlarini minimallashtiradigan o'rnatilgan, almashtiriladigan modullari bo`lishi.<br>- O‘zbekistonda rasmiy xizmat ko‘rsatish va vakolatli |

| | | |
|---|---|---|
| | | markazga ega bo'lishi kerak hamda Respublika bo'yicha 12 tadan kam bo'lmagan Servis markazi mavjudligi va ushbu ishlab chiqaruvchisidan O'zbekistonda terminalga xizmat ko'rsatish huquqlarini tasdiqlovchi rasmiy "Spravka" sertifikatiga ega bo'lishi lozim.<br>- Servis markazi kompleks dasturiy yechimlarga ega bo'lishi kerak (qurilmalarga xizmat ko'rsatish bo'yicha so'rovlar uchun avtomatlashtirilgan tizim) va bu yechimlar bank uskunalariga xizmat ko'rsatishni soddalashtirish uchun ishlatiladi.<br>Qurilmaga kafolat muddati 1 yildan kam bo'lmasligi<br>Kelajakda turli to'lov dasturiy ta'minotlarini qo'llab-quvvatlashi va bozorda mavjud bo'lgan ilg'or texnologiyalar bilan mos ravishda ishlashi masalan, 3 tasi 1da, KKM kabi dasturiy echimlar, shuningdek, texnik jihatdan to'lov dasturlarini ishlab chiqishda amalga oshirilayotgan yangilanishlarni qo'llab-quvvatlay olishi lozim. Terminalning texnik qismida hozirgi kunda rivojlanayotgan va joriy etilayotgan to'lov dasturlari bilan to'liq moslashuvchan ishlash qobiliyati bo'lishi kerak. |
| | POS to'lov terminali qurilmasiga minimal texnik talablar | Operatsion tizimi - ANDROID 10<br>Markaziy protsessor - Cortex Quad-core A seriyali protsessor<br>Xotira - 1GB DDR3 microSD card slot up to 128GB<br>Displey – Sensorli 5.5" IPS HD<br>Kontaktsiz kartani o'quvchi<br>SAM uyasi/SIM uyasi<br>Aloqa - 4G/3G/2G + WiFi 2.4GHz + Bluetooth<br>Periferik qurilmalar uchun portlar – Type C USB OTG va PIN POGO PIN<br>Ishlash harorati oralig'I - 0°C ~ - 15°C, -20°C ~ 50°C<br>Quvvat adapter -100 - 240V AC, 50Hz/60Hz, 5.0V DC, 2.0A<br>To'liq to'plam - elektr manbaa blok ta'minoti va kabellar<br>Kameralar – 2MP FF Rear<br>QR skaneri<br>Sertifikatlar - PCI PTS 6.x SRED \| EMV L1 & L2 \| EMV Contactless L1 \| Visa payWave \| MasterCard Contactless \| UPI qUICS \| Amex ExpressPay \| Discover D-PAS \| JCB va boshqalar<br>Batareya hajmi - 3300mAh \| 7.2V (equivalent to 6600mAh/3.6V)<br>Termal printer - 80mm/sec \| Paper roll outer diameter: 40mm<br>Qushimcha afzalliklari - AGPS \| GPS \| GLONASS \| BEIDOU |
| 6. | Buyurtmachi manzili | Toshkent shahar., Alisher Navoiy ko'chasi 18 A-uy, 100011 |
| 7. | Qo'shimcha ma'lumotlar | Tanlash ishtirokchilari - tanlash predmetining xarid hujjatlari (bajariladigan ishlar) yuzasidan, bilan tanishib chiqishga va xarid jarayonida Tanlov tashkilotchisiga xarid hujjatlari bilan tanishib chiqish yuzasidan murojat |

| | | |
|---|---|---|
| | | qilishga haqlidirlar.Tanlov hujjatlarida bajariladigan ishlar qiymati, narx taklifini ochiq taqdim etgan ishtirokchilar tanlovdan chetlashtiriladi. |
| 8. | To`lovlarni amalga oshirish | Shartnoma imzolagan kundan boshlab 10 bank kuni ichida shartnomaning miqdorining 30% miqdorida oldindan to'lov amalga oshiriladi. Shartnomaning 70% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab amalga oshirilgan ishlar hajmidan kelib chiqib 10 bank kuni ichida qisman to'lab boriladi. |
| 10. | Shartnomani amal qilish muddati | Shartnomada ko`rsatilgan 1000 dona terminallar yetkizilgach 12 oy lik kafolat muddati tugagunga qadar. |
| 11. | Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish | Ijrochi tomonidan tovar to'liq yetkazib berilgandan so'ng qabul qilish topshirish dalolatnomalari taqdim etish va ikki tomonlama imzolangandan keyin bajarilgan deb hisoblanadi |
| 12. | G'olib tashkilot | Tanlash yakuni natijasiga aniqlanadi. |
| 13. | Ishtirokchilaming tashkilotchi bilan bog'lanish uchun aloqa telefonlari | (78) 150-93-39 (ichki 315) E.Abduraxmanov |
| 14. | Baholash mezoni | Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari boyicha baholanadi. |

**"Biznesni rivojlantirish banki" ATB**
**Bank kartalari tizimini qo`llab – quvvatlash departamenti direktori** **J.Alimov**